

INGLIZ TILINI O'QITISHDA GAPIRISHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI VA MULOQOTNI TO'G'RI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

ЗНАЧИМОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ГОВОРЕНИЮ ПРИ ПРЕПОДАВА- НИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И ПРИНЦИПЫ ПРАВИЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ КОММУНИКАЦИИ

THE IMPORTANCE OF TEACHING SPEAKING IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION AND PRINCIPLES OF PROPER COMMUNICATION ORGANIZATION

MALIKOV JASURBEK ISROIL O'G'LI

Qo'qon universiteti Andijon filiali, Ingliz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tili darslarida interaktiv o'qitish metodlaridan foydalangan holda talabalarni muloqotga o'rgatish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan hamda muloqotda muvaffaqiyatga erishish uchun Pol Grays (Paul Grice) tamoyillariga amal qilishning afzalliklari va didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: chet tilini o'qitish, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, interaktiv ta'lim, kommunikativ yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы обучения общению на уроках иностранного языка с использованием интерактивных методов обучения. В исследовании освещается важность развития речевых навыков, а также научно обосновываются преимущества и дидактические возможности следования принципам Пола Грайса (Paul Grice) для достижения коммуникативного успеха.

Ключевые слова: преподавание иностранного языка, инновационные методы, цифровые технологии, искусственный интеллект, интерактивное обучение, коммуникативный подход.

Abstract. This article focuses on teaching communication in foreign language classes by using interactive teaching methods. The study highlights the significance of developing speaking skills and scientifically substantiates the benefits and didactic potential of following Paul Grice's principles to achieve communicative success.

Keywords: foreign language teaching, innovative methods, digital technologies, artificial intelligence, interactive learning, communicative approach.

Kirish

Hozirgi kunda, jamiyatimizning har bir soxasida bo'lgani kabi, chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyojning ortib borishi uning o'qitilishida ham yangi tendensiyalarni qo'llash muhim ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, xalqaro standartlarga javob beradigan ta'lim berish, ilm-fan va texnologiyalarning juda tez rivojlanayotganligi tufayli, soxa mutaxassislarining o'z bilim va ko'nikmalarini jaxon andozalariga moslashi ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois ham, ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish metodikasini rivojlantirib, takomillashtirib borish, uni zamonaviy talablar asosida tashkil etish bugungi kunning muhim masalalaridan biriga aylangan. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, keys stadi kabi usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ingliz tiliga o'qitishda muloqotdan foydalanish og'zaki nutqni rivojlantirish uchun nihoyatda samarali hisoblanib, u o'quvchilarning har qanday nutqiy vaziyatga tayyor bo'lish, muloqot davomida o'zini erkin tutish kabi xususiyatlarni egallash imkonini beradi. Bundan tashqari, subyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir imkoniyatlarini kengaytiradi. Ingliz tilini o'rganishda talabalarning o'rganilayotgan tilda muloqotini tashkil etish uning barcha ishtirokchilarini yagona yaxlitlikka birlashtirish va ularning qo'shma faoliyatga jalb qilinishi sifatida qaraladi, bunda muloqot qiluvchilar umumiy maqsadlar, qiziqishlar asosida harakat qilishadi va sheriklarni ular o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning paydo bo'lishi va yaxshilanishiga olib boradigan harakatlarni amalga oshiradilar.

Ingliz tilida muloqotni tashkil etishning zarur shartlaridan biri bu uchta asosiy muloqot ehtiyojlarini (aloqa o'rnatish, axborot berish va ta'sir ko'rsatish) modellashtirish orqali motivatsion asosni shakllantirishdir. Suhbatni boshlash uchun ona tili va o'rganilayotgan til xalqlarining odob-axloq xususiyatlarini,

shuningdek, tegishli til va nutq vositalarini bilish talab etiladi. Muloqot qilayotganda, suhbatdoshning ijtimoiy-madaniy va xulq-atvor xususiyatlarini yetarlicha bilmaslik muloqotda noqulayliklarga olib kelishi va psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Suhbatdoshlar o'rtasida axborot almashinuvi suhbat ssenariylari, nutq modellari va suhbat formulalarini bilishni, shuningdek, axborotni qabul qilish, uni uzatish, aniqlashtirish, tasdiqlash va boshqa ko'nikmalar va qobiliyatlariga ega bo'lishni talab etadi.

S.Xogan aytganidek, "muloqot faqat biz xohlagan narsalar bilan bog'liq emas. Muloqot tinglash va gapirishni, shuningdek, his-tuyg'ularingizni va fikrlaringizni boshqalarga ochib berishni anglatadi. Muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirish hayotning turli sohalarida: sevgidan biznes va savdoga qadar yuqori cho'qqilarni zabt etishga imkon beradi".

Nutqning ikki shakli mavjud bo'lib ular monolog va dialogdir. Har bir shaklning o'ziga xos xususiyatlari borligi sababli, biz monolog va dialogni o'rgatish haqida alohida to'xtalib o'tishimiz kerak.

Monologni o'qitishda biz gapirish qobiliyatini tashkil etuvchi darajalarga ko'ra uch bosqichni ajratib olishimiz mumkin: (1) muloqot darajasi; (2) bayonot darajasi; (3) nutq darajasi.

1. Talabalar chet tilida gaplar tuzishni va bayonotlar tuzishni o'rganmaguncha, nutq so'zlay oladi deb bo'lmaydi. Talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi jarayon taklif qilinishi mumkin:

Talabalarga vaziyatlar bilan bog'liq holda o'zlashtirish uchun gap shakllari beriladi. Talabalar o'qituvchi tomonidan taklif qilingan vaziyatlar bilan bog'liq holda o'zlarining bayonotlarini tuzadilar. Masalan:

"Unga nom bering" deb nomlangan mashg'ulot:

O'qituvchi: We write with it.

Talaba: It is a pen or pencil.

Talabalar o'zlashtirgan grammatika va lug'at doirasida chet tilida bayonotlar tuza olganda, ularning nutqi murakkabroq bo'lishi mumkin. Ular turli xil gap shakllaridagi bayonotlarni mantiqiy ketma-ketlikda birlashtirishni o'rganishlari kerak.

2. Talabalarga taqdim etilgan obyekt, subyekt haqidagi gapda turli xil gap shakllaridan qanday foydalanish o'rgatiladi. Avval ular namunaga amal qilishlari kerak, keyin esa hech qanday yordamisiz buni amalga oshiradilar.

3. Agar talabalar bayonotlar berish va ularni mantiqiy ketma-ketlikda birlashtirish odatlari va ko'nikmalariga ega bo'lsalar, erkin so'zlay olishlari mumkin. Bu darajada talabalardan rasm, rasmlar to'plami, kinofilm, film xaqida gapirish, o'qigan yoki eshitgan matni haqida fikr bildirish, o'zlari uchun hikoya yaratish so'raladi; albatta, bu talabalar o'zlashtirgan til materiallari doirasida amalga oshiriladi.

Talabalarga gapirishga yordam berish uchun o'qituvchi ularga "nima haqida gapirish kerak" degan ma'lumotni beradi. Bu maqsadda ishlatiladigan vositalar: o'qiladigan matnni o'z ichiga olgan holda, o'quvchining gapirishini rag'batlantiradigan vizual vositalar: o'quvchining stimulni eshitish orqali idrok etishi orqali nutqni rag'batlantiradigan audio vositalar; o'quvchilar nima haqida gapirishga ko'ra va eshita oladigan audio-vizual vositalar.

Monologni o'qitishda o'quvchilarga avval qanday qilib bayonotlar berishni, keyin turli jumalarni bitta gapda qanday birlashtirishni va nihoyat, taklif qilingan mavzu bo'yicha qanday gapirishni o'rgatadi.

Muloqot bir qator yetakchi javob birliklaridan iborat bo'lib, yetakchi javob birligining muhim xususiyati shundaki, javob qismi o'z navbatida keyingi og'zaki almashinuvlarga olib keladigan yangi turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin va odatda shunday bo'ladi. Javob birligi ikki pauza

orasidagi nutq birligidir. U bir nechta jumladan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchilar avval dialogni quloq orqali "qabul qiladilar". Ular o'qituvchi tomonidan yozib olingan yoki qayta tinglangan dialogni tinglashadi. O'qituvchi o'quvchilarga dialogning mazmunini tasvirlash uchun rasm yoki rasmlardan foydalanib, uni tushunishga yordam beradi. Ular dialogni ikkinchi marta tinglashadi va keyin uni yaxshiroq tushunish uchun jimgina o'qiydilar, intonatsiyaga e'tibor berishadi. Agar kerak bo'lsa, ular dialogni tinglashlari va yana o'qishlari mumkin.

a) Talabalar namunaviy dialogni yodlab aytib berdilar. Bunday dialog tayyor taqdim etiladi va talabalar uni ijro etadilar.

b) Talabalar o'zlari dialoglar tuzadilar. Ularga gapirish uchun rasm yoki og'zaki vaziyat beriladi. Bu talabalarda naqshlar zahirasi, suhbatni boshlash, qo'shilish va hokazolar uchun ma'lum miqdordagi iboralar mavjud bo'lgan taqdirda mumkin. Ular suhbat uchun taklif qilingan vaziyat bilan bog'liq holda o'rgangan yetakchi javob birliklaridan foydalanishlari kerak.

"Inson o'zgalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishi uchun u do'stona muomala qilishi, o'rinli javob berishi, suhbatdoshining fikr-mulohazalariga qiziqish bildirishi, qarshilikni kamaytirishi, ishonchni kuchaytirishi va xushmuomalalik bilan so'zlashi kerak".

Bu borada muloqot muvaffaqiyatga uchrashi uchun Graysning muloqot tamoyillari borasida olib borgan izlanishlari natijasi o'laroq u nutq muloqotining 4 asosiy talablarini (Grays "Maksima" atamasini qo'llaydi) ishlab chiqadi. Bu maksimalar kommunikativ muvaffaqiyatga eltuvchi shartlar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. miqdor maksimasi (boshqalarning qiziqishlarini va vaqtini inobatga olgan holda ko'p ham emas va oz ham emas, balki me'yordan chiqmagan holda nutq so'zlash);

2. sifat maksimasi (o'zgalarga aytilayotgan fikrning rost va tushunarli bo'lishi sharti);

3. aloqadorlik maksimasi (aytilayotgan fikr suhbatga aloqador bo'lishi, muloqotchilarning suhbatini buzmaslik va fikrini chalg'itmaslik);

4. manner- o'zini tutish maksimasi (suhbatdoshga noqulaylik tug'dirmaslik uchun aytilayotgan nutq na ortiqcha baland va na o'ta darajada past ovozda bo'lmasligi hamda tiniq, ravon bo'lishi sharti).

Ushbu talablar suhbatdoshining fikrini chalg'itmasligi, unga nisbatan hurmatsizlik

qilmasligi, aniq va ravshan tushuntirilishi hamda haqiqatni so'zlashiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosaqilibaytganda, ingliz tiliga o'rgatish uchun avvalo gapirish ko'nikmasini rivojlantirish kerak va buni amalga oshirish uchun esa Pol Grays tomonidan taklif etilgan qoidalarga amal qilgan holda, lingvistik-grammatik, pragmatik-diskurs, ijtimoiy-lingvistik yoki strategik kompetensiyalardan birini qo'llash zarur. Shundagina muloqot muvaffaqiyatga erishadi hamda so'zlovchi tinglovchiga yetkazmoqchi bo'lgan fikrini aynan ifodalay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov N. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
2. Majidova Z.A. THE ANALYSIS OF POLITENESS STRATEGIES IN DIRECTIVE SPEECH ACTS // Экономика и социум. 2023. №1-2 (104). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-analysis-of-politeness-strategies-in-directive-speech-acts> (data obratsheniya: 18.05.2026).
3. Qodirova Z. Til o'qitishda kommunikativ yondashuv. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Бойков Ванче Стеванович Вероятные барьеры для общения // Коммуникология. 2020. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/veroyatnye-bariery-dlya-obscheniya> (Data obratsheniya: 25.04.2024).-С 91-107.
5. Ergasheva N. Blended learning modeli va uning afzalliklari. – Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2022.